



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Rustamova Zuxra Olimjon qizi

2006-yil Samarqand shahri, ‘Do’stlik’ mahallasida tug'ilgan va shu yerdagi 32-umumta’lim mакtabini oltin medal bilan tamomlagan. 2024-yil Ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatga ega bo’lgan. Hozirda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’naliшining 1- bosqich talabasi.

QIZCHA VA QUSHCHA HIKOYASI

Dengizlar chayqalar og‘ir va vazmin,
Shamolda silkinar nihollar asta.
Bir qiz dengiz tomon boraveradi.
Sohildan qadamlar tashlaydi hasta.

Ko‘zi bir nuqtada: xayol suradi.
Oyog‘i qimirlar birgina uning.
Barcha tanalari diqqatga shoshib,
Aftida asari bo’lar qayg‘uning..

Xiyol chekinadi, ehtimol, qo’rqar!
- Dengiz salobatin tutib turadi
O’zini asrolmay qolgan oziqni
Bir-bir, o’qtin-o’qtin yutib turadi..

So’ngra birdaniga qiyomat qo’par:
Uning tepasida chaqmoq chaqadi..
Sharros yomg‘ir quyib, u qizni suyib,
Rahm-shafqat ila unga boqadi..

Shamol ham qiladi o’ziga mehmon,
Mana shu asrandi qizchani shoshib..
Nega “qizcha” bo’lsin, kattakon bo’lgan
Menimcha qolgandir, o’n beshdan oshib

Ammo telba edi, devona edi,
Dunyoga begona, aqlsiz, sarmast..
Unda endi bari bir edi, xolos
Atrofga boqardi doim mast-alast..





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bir qushcha bor ekan bunda xushnavo,
 O‘liklar tirilar uning kuyiga,
 Tiriklarning esa joni uzilar
 Barcha chaqirarmish uni to’yiga!

Qiroatda unga yetgani yo‘q mish,
 Balki shuning uchun o’ziga to’q mish,
 Qo’rqqani birgina zaharli o’q mish..
 Barcha mahliyomish uning bo’yiga..

Qush va qiz! Hikoyam bosh rollarida
 Ikkalasi turar zabardast, tayyor..
 Faqat o’rtasida ancha masofa -
 Bitta dengiz hamda bitta sohil bor!

Uchdi qush, aylanib, pildirab, tezroq,
 Dengizning labiga - qizchaga tomon..
 Uning maqsadi bor: mana shu qizcha
 Qolishi kerakmish eson va omon..

Qush qaro bulutni ko’rmadi aslo
 Umri davomida, qanchalik yashab..
 Mana shu musaffo osmoni haqqi
 Shu qiz atrofini olish shart qurshab.

Toki, bilsin u ham, boshi uzra qush
 Birodari bo’lib uchib keladi.
 G‘uborsiz samoni va’da qilibon
 Toza havolarni quchib keladi.

Bilsin, u qizcha ham, erklikni, erkni
 Barchasi o’zining qo’lida axir.
 O’zini qilmasin badnom, (yo tavba)
 Qaytsin bundan, Alloh qilmasdan qahr.

Keldi, vanihoyat: qushcha manzilda,
 Ovozi osmonni tutib ketdi zum,
 Qizcha-chi?
 U tomon qaradi hamda
 Qizcha yetolmadi dengizga yakun!





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YALAR



TURKIYA XALQIGA...

Bugun tepang uzra qora bulutlar,
Shonli quyosh yurting qoplamoqdalar.
Shuncha ko'z yoshlarga sababchi bo'lib,
Ajabo, o'zlarin yoqlamoqdalar..

Duoga qo'l ochib, duo qilardi
Balki allaqanday duogo'y inson.
Yana allakimlar umr tilardi
O'zi va o'zgaga burunroq zamon.

Kimdir o'yin-kulgu bilan band edi,
Yoki mushtoq bo'lgan diydor hissiga,
Sal avval yegani asal-qand edi,
Tinch o'tirar edi yumshoq kursiga ..

Bazm-u jamshid edi qaysidir uyda
O'g'li medal olgan, nishonlar edi..
Yana qay birida mas'um bir go'dak
Endi yurishiga ishonar edi!

Barcha xonadonda hayot tashvishi
Qaynar buloq kabi balqib borardi,
Beg'ubor go'dakning mayin kulishi
Dilimizning tubin yulqib olardi..

Endi-chi, tepangda qora bulutlar,
Bilingki sinalmoq fursatidir bu!
Yor-u birodarni tuproqqa qo'yib,
O'ksinib yig'lamoq fursatidir bu!

Endi butun xalqning dardi yagona,
Dardmandlarga hamdard bo'lish lozimdir!
Bu ishlarni qilgan qaro bulutmas,
Yaratgan Egamdir, buyuk qozimdir!





**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATION G'YALAR**



Tohir Malikning "Alvido, bolalik" asaridan ilhomlangan holda...

Murg‘ak bolachalar yum-yum yig‘laydi,
Ko’zidan oqadi dur-u gavharlar..
Qo’lini cho’zadi, silkinib takror,
Onasi tomonga, yig‘lab qararlar..

Umidini uzmas, kutar erta-kech
"Albatta keladi, onam yonimga,
So’ngra yana o’qib beradi ertak,
Olib ham boradi xiyobonimga "

Sochlari jingalak, kulgisi mayin,
Alamlar bo’ladi ularda ortiq
Dardi ortib borar kun o’tgan sayin,
Otasi, onasi - eng katta tortiq..

Yana kunlar o’tar, farzandi kutar
Onasi kelmaydi ostona hatlab,
Endi bola yana battar qon yutar,
Kunlar sanar, oylar sanar navbatlab...

Sabri ham tugadi, ko’z yoshi tindi,
Ko’zi qonga to’ldi dardli bolaning.
Endi umidlar jon kabi uzildi,
Cheki ham tugadi, cheksiz nolaning..

Arshi a’lodagi titroq bosilib,
Noladagi ovoz kuyga aylandi.
Ammo, murg‘ak bola - g“uborsiz bola
Zardaga, qasosga, jonga shaylandi...

Endi unda mehr emas bor qahr,
Yig‘lamas-u lekin beradi ozor,
Endi ko’rinmaydi dunyo tor unga
Biroq, u yaxshimas endi isyonkor..

Bunda hikmatlar ham bo’lyapti zohir:
Boladagi o’ylar bizga begona,
Lekin, u ko’p narsani tilamasdi, axir..
Ha, undagi orzu, istak - yagona!

